



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYALAR SOHASIDA NAZORAT BO'YICHA
DAVLAT INSPEKSIYASI**

BUYRUG' I

2022 yil «06» may

168 - son

**2021-yilning II yarim yilligida ma'naviy-ma'rifiy sohada hamda
davlat tilini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar va bu boradagi
ishlarning samaradorligini oshirish haqida**

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy va davlat tilini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tizimli tashkil etish, bu sohalardagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning aqliy salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, Vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan insonlar tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan **“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida”** yetti ustuvor yo'nalishning biri **“Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”** etib belgilanganligi esa, ma'naviy va ma'rifiy ishlarning jamiyatimiz hayotida muhim mavqega ega ekanligining yorqin isbotidir.

O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5040-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlari hamda inspeksiya bayonnomalariga muvofiq 2021-yilning II yarim yilligida inspeksiyada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Inspeksiya xodimlarida vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy xislatlarini, milliy an'analar va qadriyatlarga, buyuk ajdodlar merosiga hurmatni rivojlantirish, ekstremizm va terrorizm g'oyalariga, noxolis axborotlarga qarshi immunitetni mustahkamlash, xodimlarga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning hamda qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadida **buyuraman:**

1. 2021-yilning II yarim yilligida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha bajarilgan ishlar 1-ilovaga muvofiq inobatga olinsin va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

00010000

2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish, bu boradagi faoliyatga yaqindan ko'maklashish maqsadida O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi a'zolariga ma'naviy-ma'rifiy (siyosiy) va madaniy tadbirlarni samarali tashkil etishda hamda o'tkazilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, inspeksiya veb-saytida va telegramm kanallarida yoritishda boshliq maslahatchisiga har tomonlama yordam ko'rsatish;

har yarim yillik yakuni bo'yicha o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy (siyosiy) va madaniy tadbirlarni muhokama qilish, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha yig'ilish o'tkazish va bayonnoma qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Boshliq maslahatchisi v.b. (T.Xamrakulov):

2022-yilning I yarim yilligida ma'naviy-ma'rifiy (siyosiy) va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar o'tkazilishi O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining 2022-yil 27-yanvardagi 03-05-01-son Bayonining 2-ilovasiga muvofiq ta'minlansin;

ma'naviy-ma'rifiy ishlarning uzluksizligini ta'minlash hamda xodimlarga mamlakatimizdagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning hamda qabul qilingan qonun hujjatlari, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish, ijtimoiy-siyosiy yangiliklardan xabardor qilish maqsadida haftaning har chorshanba kunida ma'rifiy (siyosiy) o'quv soatini alohida reja asosida o'tkazilishi ta'minlansin.

4. Bosh mutaxassis (F.Safarova) boshliq maslahatchisi v.b. (T.Xamrakulov), Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi a'zolari, boshqarma, bo'lim, xizmat boshliqlari bilan kelishilgan xolda haftaning har chorshanba kuni o'tkaziladigan ma'rifiy (siyosiy) soat rejasini tayyorlashi va belgilangan tartibda tasdiqlashi ta'minlansin.

Belgilab qo'yilsinki, har chorshanba kuni o'tkaziladigan ma'rifiy (siyosiy) o'quv soatini o'tkazishga Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi a'zolari hamda mutaxassisligi bo'yicha markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari ham jalb qilinadi.

5. Hududiy inspeksiyalar boshliqlari, "Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" DUK direktori:

markaziy apparatda o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, ma'rifiy (siyosiy) soatlarda xodimlarning ishtiroki videokonferensaloqa orqali ta'minlansin;

ma'naviyat va ma'rifat burchaklari, kutubxonalar adabiy, ijtimoiy-siyosiy va soxaga oid kitoblar, gazeta va jurnallar bilan to'ldirilib borilishi ta'minlansin.

6. O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining 2020-yil 14-yanvardagi 10-son, 2022-yil 23-apreldagi 70-son buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning bajarilish nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshliq v.b.

A.Abdullayev

**O'zkomnazorat davlat inspeksiyasida 2021-yilning II yarim yilligida
ma'naviy-ma'rifiy ishlar, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya
etilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida**

MA'LUMOT

1.Ma'naviy-ma'rifiy (siyosiy) tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son Qaroriga asosan hamda "O'zkomnazorat davlat inspeksiyasida 2021-yilning II yarim yilligida o'tkazilishi belgilangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va o'quv seminarlar rejasi"ga muvofiq markaziy apparat va hududiy inspeksiya xodimlarida yuksak ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, davlat ramzlari, davlat tili va milliy qadriyatlarga yuksak hurmat va ehtirom ruhida tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash maqsadida quyidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi:

2021-yil 8-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi **Davlat gerbi qabul qilingan kun** munosabati bilan markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan videokonferensaloqa orqali ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi;

2021-yil 14-iyul kuni Markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan videokonferensaloqa orqali **"Internet-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi noxolis axborotlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda xodimlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – biz uchun muhim vazifa"** mavzusida ma'naviy- ma'rifiy tadbir o'tkazildi;

2021-yil 18-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **"Yangi O'zbekiston"** gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari aks etgan suhbat matni markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlariga elektron pochta orqali yetkazildi;

2021-yil 8-sentabr kuni markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan **"Mustaqillikning 30 yillik bayram kunlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ishtirokidagi tadbirlar"** mavzusida ma'rifiy-siyosiy tadbir o'tkazilib, 2021-yil 31-avgust kuni istiqlolning o'ttiz yilligiga bag'ishlab bunyod etilgan **"Yangi O'zbekiston"** bog'i va Mustaqillik monumentining tantanali ochilish marosimidagi va Mustaqillikning 30 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalaridagi nutqlarining mazmun-mohiyati xodimlarga tushuntirildi;

2021-yil 10-sentabr kuni markaziy apparat xodimlarining **Qatag'on qurbonlari xotirasi Davlat muzeyiga** tashrifi tashkillashtirildi. Tadbir Mudofaa vazirligining "Vatanparvar" gazetasida yoritildi;

2021-yil 3-noyabr kuni markaziy apparati va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan **"Ona tilim – g'ururim, faxrim"** mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning **"O'zbek tili bayrami kuni"** munosabati bilan xalqimizga yo'llagan tabrigi tadbir ishtirokchilariga yetkazildi;

2021-yil 10-noyabr kuni Sh.M.Mirziyoyevning Prezidentlik lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi **"Harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari"** mavzusidagi nutqi bo'yicha markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan ma'rifiy-siyosiy tadbir o'tkazildi;

2021-yil 12-noyabr kuni inspeksiya markaziy apparat xodimlarining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga tashrifi tashkillashtirildi;

2021-yil 18-noyabr kuni markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan **"Muqaddasdir Vatan bayrog'i"** mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi;

2021-yil 7-dekabr kuni markaziy apparat va hududiy inspeksiyalar xodimlari bilan O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi kuniga** bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiya qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan bayram tabrigi xodimlarga yetkazildi va mazmun-mohiyati tushuntirildi;

2021-yil 10-dekabr kuni inspeksiya barcha xodimlari bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kuniga bag'ishlangan **"Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon"** mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi;

2021-yil 30-dekabr kuni markaziy apparat xodimlarini **Yangi yil bayrami** bilan tabriklash, xodimlarga va ularning farzandlariga Kasaba uyushmasi sovg'alarini topshirish bo'yicha ma'naviy-madaniy tadbirlar o'tkazildi.

Shuningdek, O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining o'quv seminarlari rejasiga asosan, har haftaning chorshanba kunlari markaziy apparat va hududiy inspeksiya xodimlari bilan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan muhim voqea va yangiliklar to'g'risida ma'rifiy-siyosiy tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Rahbari huzurida 2020-yil 23-oktabrda bo'lib o'tgan yig'ilishning 7-son bayonnomasi 10-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan har juma kuni efirga beriladigan siyosiy (ma'rifat) o'quv soatlarida xodimlarining onlayn ishtiroki ta'minlandi.

2021-yil 2-avgustdan 22-oktabrga qadar Prezident Administratsiyasi ishchi guruhi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat safari davomida joylarda sektorlar rahbarlari, hokimiyat mutasaddi xodimlari, umumta'lim o'rta va kasb-hunar maktablari jamoalari bilan Mustaqillik yillari, ayniqsa, keyingi besh yilda Prezident Sh.M.Mirziyoev rahnamoligida amalga oshirilgan ishlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, ularda mustaqil O'zbekiston ramzlari bo'lmish Davlat bayrog'i, Davlat gerbi, Davlat Madhiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda

Davlat tili va milliy qadriyatlarimizga hurmat, ulardan faxrlanish hissiyotlarini mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham o'tkazildi.

2. Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya yetilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaroralari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining quyidagi buyruqlari qabul qilindi va 2022-yilning II yarim yilligida ijrosi ta'minlandi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida 2020-yil 22-oktabrdagi 190-son;

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi 34-son qarori ijrosi haqida"gi 2020-yil 23-yanvardagi 19-son;

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-fevraldagi 52-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 2021-yil 9-fevraldagi 31-son;

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi 61-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 2021-yil 12-fevraldagi 45-son;

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyuldagi 30/1-2308-son topshirig'i ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 2021-yil 5-iyuldagi 212-son;

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 2021-yil 1-noyabrdagi 282-son.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 8-oktabrdagi 144-son Bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 8-oktabrdagi 144-son bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 2021-yil 13-oktabrdagi 272-son buyrug'i tasdiqlandi va ijrosi ta'minlandi.

Ushbu buyruqda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining o'zbek tilini rivojlantirish va O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining kundalik faoliyatida davlat tiliga qat'iy rioya qilish, Mudofaa vazirligi tizimida va Farg'ona viloyatida aniqlangan kamchiliklarni O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining markaziy apparati va hududiy inspeksiyalarida qaytarilmasligi bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 8-oktabrdagi 144-son bayonini hamda O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining davlat tili bo'yicha buyruqlari ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

"Davlat tili haqida"gi Qonunning 8,9,10-moddalariga muvofiq, O'zkomnazorat davlat inspeksiyasi markaziy apparati va uning hududiy inspeksiyalarida tayyorlanadigan qonun va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, barcha ichki buyruqlar, farmoyishlar, bayonnomalar, topshiriqlar, idoralararo yozishmalar, yuqori

tashkilotlarga yuboriladigan hujjatlar matni davlat tilida, ya'ni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida to'g'ri, imlo qoidalariga rioya yetilgan holda yozilishi ta'minlangan;

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq, O'zkomnazorat davlat inspeksiyasi markaziy apparati, “Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi va hududiy inspeksiyalar muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlari davlat tilida, ya'ni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida tayyorlangan va rasmiylashtirilgan;

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq, O'zkomnazorat davlat inspeksiyasi markaziy apparati, hududiy inspeksiyalar nomlari, ularning hududidagi shiorlar, targ'ibot-tashviqot va sohaga oid bannerlari, xizmat xonalarining peshlavhalari davlat tili me'yor-qoidalariga mos ravishda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida o'rnatilgan;

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq, 2021-yilda markaziy apparatning 4 nafar xodimi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida o'z malakalarini oshirdilar;

2021-yilning sentabr oyida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasidan **“Milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli”** kitobi 2 nusxa, **“Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati”** 5 nusxa, 2021-yilning noyabr oyida **“Davlat tilida ish yuritish”** kitoblari 20 nusxada, **“Ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug'ati”** 5 nusxada olinib, markaziy apparatning tegishli bo'limlari va hududiy inspeksiyalarga tarqatildi. Bugungi kunda ushbu kitoblar va izohli lug'atlardan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda va davlat tilida ish yuritish bo'yicha kundalik faoliyatda foydalanilmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy (siyosiy) tadbirlar hamda davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya yetilishini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan ishlar O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining veb-saytiga va telegramm kanaliga joylashtirib borildi. Inspeksiya veb-saytining **“Til bor – millat bor”**, **“Ona tili – o'zlik timsoli”**, **“Kun hikmati”** ruknlariga o'zbek tili haqidagi maqolalar, buyuk allomalarning ona-tili, odob-axloq va hayot to'g'risidagi hikmatli so'zlari joylashtirilib borildi.

O'zkomnazorat davlat inspeksiyasida 2021-yilning II yarim yilligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamentiga O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining 2022-yil 21-dekabrda 03-44/2349-son xati bilan yuborildi.

**O'zkomnazorat davlat inspeksiyasining
Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi tarkibi***

F.I.Sh.		Lavozimi
A.Abdullayev	—	O'zkomnazorat davlat inspeksiyasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi, Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi raisi
	—	O'zkomnazorat davlat inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari, Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi raisi o'rinbosari
Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi a'zolari		
A.Sidikov	—	Axborot xizmati boshlig'i
S.Xodjayeva	—	Xodimlarni boshqarish bo'limi boshlig'i
N.Nurquvvatov	—	Davlat nazorati inspektorlari guruhi rahbari, Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi
S.Soipnazarov	—	Bosh mutaxassis, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti raisi
N.Temirov	—	Yuridik byuro Yetakchi yuristkonsulti
F.Safarova	—	Yetakchi mutaxassis
L.Igamova	—	Yetakchi mutaxassis
N.Dalibayev		"Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" DUK direktori
Tegishli ravishda	—	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar hududiy inspeksiyalari boshliqlari
T.Xamrakulov	—	Boshliq maslahatchisi, Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi kotibi

* Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi tarkibidagi xodim boshqa lavozimga o'tganda yoki lavozimdan ozod etilganda, uning o'rniga tayinlanadigan yoki tegishli vazifalar yuklatilgan xodim bevosita ushbu Kengash a'zosi hisoblanishi belgilab qo'yilsin.